



TEMURIYLAR DAVRIDA YER-SUV MUNOSABATLARI

Otaxonova Gulsanam Alisher qizi
Mirzayeva Mexruza Sharofiddin qizi
Sunnatov Murtazo Zamonali o'g'li

atakanovagulsanam@gmail.com

Termiz davlat pedagogika instituti 3- kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15672897>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temuriylar davridagi yer-suv munosabatlari, Temuriy hukmdorlarning sohani rivojlantirish yo'lida qilgan bunyodkorlik ishlari yozma manbalar asosida yoritib beriladi. O'sha davr dehqonchilik tajribalarining bugungi kun bilan bog'liqligi va ahamiyatini tahlil qilishga harakat qilinadi.

Kalit so'zlar: Temuriylar, yer egaligi, dehqonchilik, Samarqand, taraqqiyot, Temur tuzuklari, yozma manbalar, Zarafshon vodiysi, suyurg'ol.

Abstract: The article examines land-water relations during the Timurid era and the creative activities of Timurid rulers in developing this area based on written sources. An attempt was made to analyze the relevance and significance of the agricultural experience of that period for today.

Keywords: Timurids, land ownership, agriculture, Samarkand, development, Timur's decrees, written sources, Zarafshan Valley, syuyurgol,

Аннотация: В статье на основе письменных источников рассматриваются земельно-водные отношения в эпоху Тимуридов и творческая деятельность правителей Тимуридов по развитию этого сектора. Сделана попытка проанализировать актуальность и значимость опыта земледелия того периода для наших дней.

Ключевые слова: Тимуриды, землевладение, сельское хозяйство, Самарканд, развитие, указы Тимура, письменные источники, Зарафшанская долина, Сююргол,

Tarixdan ma'lumki, davlatning qudrati albatta unda yashayotgan xalqning turmush sharoitiga, dehqonchilik, xususan, aholidan olinadigan soliqlarga bog'liq bo'lgan. Dehqonchilik qanchalik rivojlanib, taraqqiy etishida albatta hukmdorlar ham birdek manfaatdor bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kun bilan bog'laydigan bo'lsak, „Xalq boy bo'lsa, davlat qudratli bo'lur“. Qadim davrlardan yer odamlarning do'sti va ularning diqqat e'tiborida bo'lgan. Unga ishlov berish shart-sharoitlari uchun hukmdorlar tomonidan ko'pgina tadbirlar amalga oshirilgan. Xususan, Temuriylar davridagi yer egalik munosabatlariga e'tibor beradigan bo'lsak, yer egaligining 4 xil shakli bo'lgan: mulki devoniy, mulk, mulki vaqf, jamoa yerlari. Bundan tashqari, temuriylar



davrida yerlarni suyurg'ol qilib berish ham keng tarqalgan. Jumladan, Amir Temurning o'zi ham egallagan hududlarni o'g'illari va nabiralariga suyurg'ol qilib bo'lib bergan. Temuriylar davri manbalariga e'tibor beradigan bo'lsak, yersuv munosabatlari keng yoritib berilganini ko'rishimiz mumkin.

Temuriylar davri yozma manbalari ma'lumotlariga asoslanib Markaziy Osiyo suvlari, umuman, tabiati va xo'jaligi holatiga nazar solsak, uning iqlimi hozirgiga nisbatan bir oz seryog'in bo'lgani ko'rinadi. Bunga bir qancha misollar keltirishimiz mumkin: Zarafshonning suvi toshib oqqan yillarda Amudaryogacha yetib borgan. Temuriylar davrida Zarafshon vodiysida sug'orma dehqonchilik nisbatan keng rivojlangan, yangi yerlar o'zlashtirilgan, Bog'-rog'lar barpo etilgan, qishloqlar va shaharlar soni ham, aholining umumiy soni ham ko'p bo'lgan. Temuriylar davrida Markaziy Osiyo va Xurosonda ko'plab, yangi sug'orish tarmoqlari barpo etilib, obodonchilik ishlari keng yo'lga qo'yilgan edi. Bu ishlar Amir Temur davridayoq boshlangan. Samarqand shahri va uning atroflarida bog'-rog'lar yaratilgan. Bog'i Shamol, Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Bixisht, Bog'i Buldo, Bog'i amirzoda Shoxrux, Bog'i Zog'on, Bog'i Baland, Bog'i amirzoda Ulug'bek, Bog'i Maydon kabi bog'lar nonlari Xofizi Abruning „Geografiya“ asarida sanab o'tilgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning „Zafarnoma“ sida yuqorida aytilb o'tilganlarga qo'shimcha, Samarqand viloyatida yana Taxtaqoracha, Qarato'ba va Davlatobod bog'lari nomlari ham eslatiladi. Movarounnahrning asosiy dehqonchilik rayoni doimo Zarafshon vodiysi bo'lib kelgan, undan keyin Qashqadaryo vodiysi turgan. Bu yerlarda hosil boshqa viloyatlarga qaraganda tez pishgan va odatda shimolroqdagi shaharlarga yetkazilgan. Xo'jand atroflarida ham, donli ekinlar yetishtirilgan, biroq aholi ehtiyojni to'liq ta'minlamagani uchun ham, uni mo'l hosil olingan Farg'onadan keltirilgan. Manbalarda Shoshga tutash yerlar ishlov berilganligi bilan ajralib turgan. Movarounnahrning serhosil vodiylaridagi dehqonchilikda turli donli ekinlar yetishtirilgan, asosan, bug'doy ekilgan. Geografik holati va yil fasllariga qarab uning turli navlari ekilgan. . Amir Temur ayniqsa Samarqand vohasini sug'orib obod etishga alohida e'tibor berdi. Obirahmat, Bozor, Korand va Nahri Jadid kabi sug'orish tarmoqlari orqali obod etilgan birgina Angor tumanida dehqonchilik bilan shug'ullanadigan qishloqlarning soni 72 taga yetdi. Amir Temur faqat Movarounnahrda emas, balki Xuroson, Eron, Kavkaz va boshqa viloyatlarda ham bir qancha yirik irrigatsiya ishlarini amalga oshirdi. Uning farmoni bilan Murg'ob vohasida qazdirilgan qator sug'orish kanallari, Kobul yaqinidagi Jo'yinav dahasining Bodon anhuri yoki Kavkazda Boylaqon mavzeyida Barlos arig'i shular jumlasidandir. „Yana amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa



yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hyech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili esa oliq-soliq qonun qoidaga muvofiq xiroj yig'sinlar. Yana buyurdimki, agar har yer va elning amaldorlari va kalontarlari oddiy fuqaroga jabr-zulm qilsa va shu orqali bechoralarga zarar yetkizgan bo'lsa bunday vaqtlarda yetkazilgan zararni kalontarlardan undirib, jabr ko'rganlarga bersinlar, toki ular yana o'z hollariga kelsinlar. Xarob bo'lib yotgan yerlar egasiz bo'lsa, xolisa tarafidan obod qilinsin. Agar egasi bo'lsa-yu, lekin obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblari va kerakli narsalar bersinlar, toki o'z yerini obod qilib olsin" kabi so'zlar Amir Temurning obodonlashtirish ishlariga bergan yuksak e'tiboridan dalolatdir. Sohibqiron Amir Temurning obodonchilik ishlariga oid yana bir misollardan biri Aras arig'ining qazilishidir. Aras atrofidagi cho'llarda bir daryodan ariq qazilgan bo'lib, u zamonlar o'tishi bilan buzilib ko'milib ketadi. Amir Temur ov vaqtida ushbu joyni ko'rib uni qayta qazishga buyuradi. Bir oyga yaqin muddat davomida shunday ariq qazishadiki, unda hatto kemalar suzsa bo'lardi deb ma'lumot beradi, Sharafiddin Ali Yazdiy. Ushbu ariqqa Barlos arig'i deb nom berishadi. Mazkur ariqning qazilishi xuddi ummon bilan bir kichkina ariqni qiyoslagandan yoki bepoyon dengizdan bir ariq chiqargan kabidir. Bundan tashqari, Shohrux Mirzo buyrug'i bilan Bog'i Safed mavzesida bir bog' va bir ko'shk bino qildirgani, unda mevalarning turli xillari ayniqsa, uzumning yuz xili borligi, har bir navi alohida nom bilan atalishi haqida ma'lumot beriladi. Shohrux Mirzo Marv shahrining asosiy suv manbai bo'lgan Murg'ob daryosining buzilgan to'g'onini, ko'milib ketgan ariqlarini qayta qazishga, to'g'onni qayta tiklashga farmon beradi. Shohrux Mirzo zamonida ko'plab xonaqohlar, madrasalar, rabotlar, ariqlar barpo ettiradi.

Mirzo Ulug'bek davrida ulkan obodonchilik ishlari tufayli qaysi tomonga yurilmasin, agar musofirlar cho'lda tunashga to'g'ri kelmagan, to'rt faslda ham boshpana va suv tayyor turganligi aytiladi. Samarqandning atroflari, uning shaharga tegishli qismi beshta ariq va yetmish ikkita qishloqdan iboratligi: Bozor, Mazdoxin, Obi Rahmat, Korand, Anhor Jadid kabi ariqlar borligi aytib o'tilgan. Akademik. V. V. Bartold Amir Temurning ziddiyatli faoliyatini shunday tavsiflaydi: "Temur ayni bir paytda beshafqat, vayronakor va jonboz quruvchi edi; uning tomonidan ajoyib bog-ro'g'lari bilan muhtasham binolar qurildi, shahar va qishloqlar tiklandi, sug'orish tizimlari barpo etildi. Shohrux va Ulug'bek bu siyosatni davom ettirishga harakat qildi. 1403 yili Samarqandga Ispaniyadan elchi bo'lib kelgan Rui Gonsales de Klavixo shahaming



ko'rkamligidan hayratda qolgan. U shahar bog'lar va uzumzorlar bilan o'ralganini, shahar tashqarisida joylashgan bog'larda ko'pdan-ko'p uylar, shoxning saroylari, omborlari bo'lganligini, shaxarga kirib borganda, go'yo shahar baland daraxtlar bilan qoplangan o'rmon o'rtasida turganday taassurot qoldirganini yozadi. Ma'lumotlarga ko'ra, musulmonchilik qoidalariga ko'ra hovuzlarning eni ham, bo'yi ham kamida 40 gaz qilib qurilgan, aks holda, undagi suv harom deb hisoblangan.

Xulosa

Amir Temur va temuriylar davrida yer-suv munosabatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotning markaziy yo'nalishlaridan biri bo'lib, davlat boshqaruvi, dehqonchilik va moliyaviy siyosatning asosini tashkil qilgan. Temuriylar davlatida yer egaligi turli shakllarda – davlat yerlaridan tortib, vakf va mulk yerlariga qadar – mavjud bo'lib, har bir yer egasi aniq majburiyatlar bilan belgilangan. Suv resurslarini boshqarish esa sug'orma dehqonchilik asosida rivojlangan bo'lib, kanallar, ariqlar va suv inshootlari orqali yerlar unumdorligi ta'minlangan. Ayniqsa, sug'orish tizimining markazlashgan holda boshqarilishi agrar sohaning barqarorligiga xizmat qilgan. Temuriy hukmdorlar, xususan Amir Temur va Mirzo Ulug'bek davrida yer va suvning adolatli taqsimlanishi, soliq tizimining yuksak darajada yuritilishi va yirik irrigatsiya loyihalarining amalga oshirilishi, davlat iqtisodiyotini mustahkamlashga zamin yaratgan. Bu davrdagi yer-suv munosabatlari Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo agrar tarixida muhim bosqich bo'lib, keyingi asrlar uchun ham ijobiy tajriba sifatida namoyon bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharafiddin Ali Yazdiy, Zafarnoma .Toshkent-1997
2. Temur va Ulug'bek davri tarixi. Toshkent-1996
3. Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida. Toshkent-1997
4. O. Bo'riyev, Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. Toshkent-1997